

**SHIKASTLANISH SINDROMI VA ULARDA AHOLIGA
SHOSHILINCH YORDAM KO'RSATISH**

Sharipova Yulduz Baxtiyor qizi

Chortoq Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi

Xirurgiya va Akusherlik fanlar uyushmasi

Xirurgiya fani o'qituvchisi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shikastlanish sindromi, uning turlari, patofiziologiyasi va asoratlari tahlil qilinadi. Shuningdek, favqulodda vaziyatlarda aholiga shoshilinch yordam ko'rsatishning zamonaviy usullari, tibbiy xodimlar va ko'ngillilarning roli yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *shikastlanish sindromi, travma, shoshilinch yordam, favqulodda holat, birlamchi yordam, reanimatsiya.*

Shikastlanish sindromi (traumatik sindrom) — bu og'ir mexanik jarohatlar natijasida organizmda yuzaga keladigan umumiy fiziologik va patologik o'zgarishlar majmuidir. Bu holat odatda kuchli urinishlar, avtohalokatlar, zilzila, portlashlar yoki boshqa falokatlar oqibatida yuzaga keladi. Vaqtida ko'rsatilmagan tibbiy yordam inson hayoti uchun xavf tug'diradi.

Shikastlanish sindromining asosiy shakllari quydagilardan iborat:

Kompression sindromi (crush-sindrom): Uzoq vaqt davomida tana a'zolarining bosilishi natijasida paydo bo'lib, mushaklar nekrozi, buyrak yetishmovchiligi va toksik shok holatiga olib keladi.

Travmatik shok: Kuchli og'riq, qon yo'qotilishi va shikastlanish natijasida qon aylanishi va nafas olish faoliyati keskin buziladi. Qon bosimi tushadi, hush yo'qoladi.

Shikastlanishdan keyingi ensefalopatiya: Bosh miya shikastlanishi oqibatida yuzaga kelib, asab tizimi faoliyatining buzilishi bilan kechadi.



Shoshilinch yordam ko'rsatish bosqichlari esa quydagilar:

1. Birlamchi yordam (hodisa joyida): Jarohatlangan shaxs xavfsiz hududga ko'chiriladi. Nafas yo'llari ochiladi, qon ketish to'xtatiladi. Naqadli yordam vositalaridan foydalaniladi (turniket, bog'lov). Bosh va umurtqa shikastlangani gumon qilinsa, harakatni cheklash zarur.
2. Transportatsiya: Jarohat darajasiga qarab ehtiyotkorlik bilan maxsus transportda yuboriladi. Travma markaziga yoki yaqin tibbiy muassasaga yetkaziladi.
3. Shifoxonada ko'rsatiladigan yordam: Gemodinamikani tiklash (infuzion davolash, qon quyish). Og'riqni kamaytirish (analgetiklar, narkotik bo'lmagan dorilar). Shikastlangan a'zoni operatsiya qilish zarurati bo'lsa, jarrohlik amaliyot o'tkaziladi.

Birinchi tibbiy yordam inson hayoti uchun xavfli bo'lgan holatlarda ko'rsatiladigan eng dastlabki yordam bo'lib, u imkon qadar tez, aniqlik bilan va qisqa fursatda bajarilishi kerak. Bunday yordam o'z vaqtida ko'rsatilsa, u nafaqat jarohatning og'irlashishini oldini oladi, balki bemorning hayotini saqlab qolishga ham yordam beradi. Ayniqsa, og'ir holatlar – ko'p miqdorda qon ketishi, elektr toki urishi, yurak urishi va nafas olish to'xtashi, cho'kish kabi vaziyatlarda birinchi yordam ko'rsatish nihoyatda muhimdir.

Favqulodda holatlarda, agar bir necha kishiga bir vaqtning o'zida yordam kerak bo'lsa, bu holda harakatlar muvofiqlashtirilishi, ya'ni qaysi bemorga qachon va qanday yordam ko'rsatilishi aniqlashtirib olinishi zarur. Shu bilan birga, turli xil shikastlanishlarga duch kelgan bemorlarga yordam ko'rsatishda ustuvorlik tartibiga amal qilinadi. Avvalo, bemorning hayotini saqlab qolish imkonini beradigan amallar bajariladi. Masalan, son suyagining ochiq singan holatida kuchli qon ketish yuz bergan bo'lsa, birinchi navbatda qon ketishini to'xtatish choralari ko'riladi. Shundan keyin, yaraga steril bog'lam qo'yiladi va so'ngra shikastlangan a'zo harakatsizlantiriladi, ya'ni immobilizatsiya qilinadi.

Immobilizatsiya qilish uchun tibbiy shinadan foydalanish mumkin. Biroq, bunday vositalar mavjud bo'lmaganda, har qanday mavjud narsalardan – taxtacha,



karton, plastmassa buyumlar kabi – foydalanish mumkin. Muhimi, suyakning harakatlanishini oldini olish va uning yana shikastlanmasligiga erishishdir.

Birinchi yordam ko'rsatish jarayonida barcha harakatlar ehtiyotkorlik bilan, shoshilmasdan va ishonch bilan bajarilishi zarur. Noaniq yoki shoshma-shosharlik bilan bajarilgan harakatlar bemorning holatini yomonlashtirib yuborishi mumkin. Ayniqsa, og'ir ahvoldagi bemorlarga qo'pol muomala yoki noto'g'ri yordam ko'rsatish ular uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi ehtimoldan xoli emas.

Agar bir nechta kishi birgalikda birinchi yordam ko'rsatayotgan bo'lsa, ular o'zaro kelishib, har birining vazifasi oldindan aniq belgilanib olishi lozim. Ulardan biri yordam ko'rsatishga boshchilik qiladi va harakatlarni boshqaradi. Bu esa ishni yanada tartibli va samarali bajarishga xizmat qiladi.

Birinchi yordam ko'rsatishda atrof-muhitda mavjud bo'lgan vositalardan to'g'ri va unumli foydalanish zarur. Masalan, bog'lovchi materiallar (bintlar, bog'lovchi paketlar, steril salfetaklar), paxta, yod eritmasi, brilliant yashili, validol, valerianka tomchilari, novshadil spirti, natriy gidrokarbonat (ichimlik sodasi), vazelin kabi dori vositalari yordamga keladi.

Shuningdek, qon ketishini to'xtatishda turli xil shinalar – fanerli, shotisimon, to'rsimon va boshqa mos vositalardan foydalanish mumkin. Bu vositalar imkoniyat darajasida toza, steril bo'lishi va bemorga zarar yetkazmasligi kerak.

Shuni ham aytish joizki, zamonaviy shaharlarda tibbiy xizmat tizimi ichida tez yordam stansiyalari va sanitariya sohasi mutaxassislari alohida o'rin tutadi. Ularning eng muhim vazifasi – shikastlangan yoki og'ir ahvoldagi bemorni imkon qadar tez, ehtiyotkorlik bilan va xavfsiz tarzda tegishli tibbiyot muassasasiga yetkazishdir. Bu tizim favqulodda holatlarda inson hayotini saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi.

Shikastlanish holatlarida birinchi tibbiy yordam ko'rsatishdan keyin, bemorga chuqurroq diagnostika va davolash zarurati tug'iladi. Bunday tibbiy xizmat odatda kasalxona va poliklinikalar qoshida faoliyat yurituvchi travmatologik punktlarda amalga oshiriladi.



Agar bemorning ahvoli jiddiy bo'lsa, u holda u maxsus travmatologik kasalxonalar yoki ularning tarkibidagi alohida travmatologiya bo'limlariga statsionar ravishda yotqiziladi. Bunday muassasalarda malakali mutaxassislar, zamonaviy texnologiyalar va uskunalar yordamida chuqurlashtirilgan davolash ishlari olib boriladi. Ularning faoliyati esa, o'z navbatida, travmatologiya ilmiy-tekshiruv institutlari, tibbiyot universitetlari va kafedralari tomonidan metodik jihatdan kuzatib boriladi, hamda amaliy ko'mak ko'rsatib boriladi.

Shikastlangan bemorlarni tekshirishda, odatda, xirurgik amaliyotda qo'llaniladigan an'anaviy usullardan foydalaniladi. Biroq travmatologik bemorlarni ko'rishda ba'zi muhim farqlar mavjud. Ayniqsa, og'ir shikastlardan so'ng bemor organizmida jiddiy o'zgarishlar – travmatik shok, ichki qon ketish, organlar faoliyatining buzilishi kabi holatlar juda tez yuzaga keladi. Bu esa shifokordan darhol harakat qilishni, aniq va tezkor tashxis qo'yishni hamda zarur yordamni kechiktirmasdan ko'rsatishni talab etadi.

Shuningdek, travmatologik tekshiruvda anamnez yig'ish, ya'ni bemorning ahvoli, shikastlanish sababi, vaqti va boshqa muhim ma'lumotlarni to'plash jarayoni muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon umumiy xirurgik tekshiruvdan unchalik farq qilmasa-da, travmatologiyada har bir daqiqaning ahamiyati yuqori bo'lganligi sababli, yanada tez va aniq bajarilishi talab etiladi.

Travmatologiyada yana bir muhim jihat shundaki, tashqi ko'rinish doimo ichki shikastlarning darajasi bilan to'g'ri proporsional bo'lmaydi. Masalan, ko'rinishda uncha katta bo'lmagan ko'krak qafasi yoki qorin bo'shlig'iga yetkazilgan jarohat, ichki organlar – yurak, o'pka, jigar, ichaklar singari muhim a'zolarining jarohatlanishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, har qanday shikastlanishda, hattoki kichik ko'rinadigan holatlarda ham, chuqur tekshiruv va mutaxassis ko'rigi zarur. Tibbiy xodimlarning hushyorligi, tezkorligi va aniq qarorlar qabul qilishi shikastlangan bemorning hayoti va sog'lig'i uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.¹

¹ Mamatqulov S. va boshqalar. "Travmatologik sindromlar va klinik protokollar", Andijon, 2019.



Xulosa qilib aytganda, birinchi tibbiy yordam – bu inson hayotini saqlab qolish uchun amalga oshiriladigan eng muhim, tezkor va ehtiyotkor harakatlar majmuidir. Bu yordamni har kim bilishi, to‘g‘ri va ishonchli ko‘rsatishni o‘rganishi hayotda ko‘plab fojialarning oldini olishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, shikastlanish sindromi inson hayoti uchun katta xavf tug‘diruvchi holatlardan biri hisoblanadi. Ushbu sindromda vaqtida va to‘g‘ri ko‘rsatilgan birinchi tibbiy yordam ko‘plab asoratlarning oldini oladi. Shuning uchun aholi orasida birinchi yordam ko‘nikmalarini shakllantirish va shifokorlarning favqulodda holatlarga tayyorligini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Атабеков А. А. va boshqalar. “Tibbiy favqulodda yordam asoslari”, Toshkent, 2021.
2. Xasanov A.S., “Travmatologiyada birinchi yordam”, Toshkent tibbiyot akademiyasi, 2020.
3. Mamatqulov S. va boshqalar. “Travmatologik sindromlar va klinik protokollar”, Andijon, 2019.